



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

SAMARQAND DAVLAT MUZEY-QO'RIQXONASI FONDLARIDAGI TOSH DAVRIGA OID ARXEOLGIK TOPILMALAR (KOLLEKSIYALAR TAHLILI)

Eshpulotov Suxrob

O'zbekiston Fanlar akademiyasi O'zbekiston tarixi muzeyi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Maqolada Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondlarida saqlanayotgan tosh davriga oid arxeologik kolleksiyalar tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi muzey fond materiallari asosida o'rta paleolit, yuqori paleolit, neolit va eneolit davrlariga mansub topilmalarni xronologik va tipologik jihatdan tavsiflash hamda ularning ilmiy va muzeyshunoslik ahamiyatini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda fond inventar ma'lumotlari, arxeologik tavsiflash va qiyosiy-tarixiy tahlil usullaridan foydalanildi. Muzey fondlarida tosh davriga oid 7982 dona arxeologik ashyo mavjud, ularning asosiy qismi paleolit va neolit davrlariga mansubbo'lib, kolleksiyalar Zirabuloq, Qo'tirbuloq, Sazag'on, Jonbosqal'a, Lavlakon va Qavatqal'a yodgorliklari materiallari asosida shakllangan. Tosh qurollar tipologiyasi va ishlab chiqarish texnologiyasi O'zbekiston hududida insonlarning o'rta paleolit davridayoq muqim yashaganini hamda keyingi davrlarda ishlab chiqaruvchi xo'jalik bosqichma-bosqich shakllanganini ko'rsatadi. Maqolada kolleksiyalarning ilmiy manba sifatidagi ahamiyati, saqlanish holati va muzey ekspozitsiyasida foydalanish imkoniyatlari baholanadi. Bunda tosh davri kolleksiyalari asosida tematik ekspozitsiya yaratish hamda ularni raqamlashtirish zarurligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi, arxeologik kolleksiyalar, tosh davri, o'rta paleolit, yuqori paleolit, neolit, eneolit, tosh qurollar, Zarafshon vodiysi, ibtidoiy jamiyat, muste madaniyati, muzey fondlari, arxeologik yodgorliklar.

АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ НАХОДКИ КАМЕННОГО ВЕКА В ФОНДАХ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЕЯ-ЗАПОВЕДНИКА (АНАЛИЗ КОЛЛЕКЦИЙ)

Эшпулатов Сухроб

Музей истории Узбекистана Академии наук Узбекистана, независимый исследователь

Аннотация

В статье анализируются археологические коллекции каменного века, хранящиеся в фондах Самаркандского государственного музея-заповедника. Цель исследования — на основе фондовых материалов дать хронологическую и типологическую характеристику находок среднего и верхнего палеолита, неолита и энеолита, а также определить их научное и музееведческое значение. В работе использованы методы фондового анализа, археологического описания и сравнительно-исторического исследования. Установлено, что в фондах музея хранится 7982 археологических предмета каменного века, основная часть которых относится к палеолиту и неолиту. Показано, что коллекции сформированы преимущественно по материалам памятников Зирабулак, Кутирбулак, Сазаган, Джанбаскала и Каваткала. Типология и технология каменных орудий свидетельствуют о заселении территории Узбекистана уже в среднем палеолите и о постепенном формировании производящего хозяйства в последующие эпохи. В заключение оценены научное значение коллекций как исторического источника, их сохранность и возможности использования в музейной экспозиции. Обоснована необходимость создания тематической экспозиции и цифровизации коллекций каменного века.

Ключевые слова: стиль, художественный язык, образность, психологический анализ, сюжет, композиция, идея.

STONE AGE ARCHAEOLOGICAL FINDS IN THE COLLECTIONS OF THE SAMARKAND STATE MUSEUM-RESERVE (ANALYSIS OF COLLECTIONS)

Eshpulotov Suxrob

Museum of the History of Uzbekistan of the Academy of Sciences of Uzbekistan, Independent
Researcher

Abstract

The article analyzes Stone Age archaeological collections preserved in the holdings of the Samarkand State Museum-Reserve. The aim of the study is to provide a chronological and typological

characterization of Middle and Upper Paleolithic, Neolithic, and Eneolithic finds based on museum collections and to determine their scientific and museological significance. The research employs collection inventory data, archaeological description, and comparative-historical analysis. It has been established that the museum preserves 7,982 Stone Age artifacts, the majority belonging to the Paleolithic and Neolithic periods. The collections were formed mainly from materials of the Zirabulak, Kutirbulak, Sazagan, Dzhanbaskala, and Kavatkala sites. The typology and production technology of stone tools indicate permanent human occupation of the territory of Uzbekistan already in the Middle Paleolithic and the gradual development of a productive economy in subsequent periods. In conclusion, the scientific value of the collections as historical sources, their state of preservation, and their potential use in museum exhibitions are evaluated. The necessity of creating a thematic exhibition and digitalizing the Stone Age collections is substantiated.

Keywords: Samarkand State Museum-Reserve, archaeological collections, Stone Age, Middle Paleolithic, Upper Paleolithic, Neolithic, Eneolithic, stone tools, Zarafshan Valley, primitive society, Mousterian culture, museum collections, archaeological sites.

Samarqand davlat muzey-qa'riqxonasi tarkibida hozirda 13 ta muzey faoliyat ko'rsatadi. Ushbu muzeylarning 8 tasida turli davr va tiplarga oid arxeologik kolleksiyalar namoyish etiladi. Mazkur 8 ta muzeyning faqat 6 tasida arxeologik kolleksiyalar fondi mavjud bo'lib, ulardagi ashyolarning umumiy soni 75 mingdan oshadi. Jumladan, O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyida 655 ta kolleksiyada 47245 dona, Samarqand viloyati o'lkashunoslik muzeyida 39 ta kolleksiyada 11327 dona, Afrosiyob muzeyida 134 ta kolleksiyada 14018 dona, Kattaqa'rg'on shahar o'lkashunoslik muzeyida 4 ta kolleksiyada 345 dona, Paxtachi tumani tarixi muzeyida 5 ta kolleksiyada 2248 dona, Ishtixon tumani tarixi muzeyida 5 ta kolleksiyada 17 dona ashyo saqlanadi.

Muzey-qa'riqxonalar arxeologiya kolleksiyalarining shakllanishi asosan uch asosiy manba hisobiga amalga oshgan:

1. ilmiy-arxeologik qazishmalar;
2. vizual kuzatuv va tasodifiy topilmalar;
3. shaxsiy kolleksiyalar va turli institutlar hisobiga.

Muzey arxeologiya kolleksiyalarining shakllanishini shartli ravishda quyidagi davrlarga bo'lish mumkin:

1. **1874–1920-yillar.** Bu davrda asosan saroycha kolleksiyachilik an'analari asosida olib borilgan ishlar natijasida ashyolar yig'ilgan.
2. **1920–1940-yillar.** Bu davrni arxeologik kolleksiyalar shakllanishining oltin davri deyish mumkin. Bu, bir tomondan, sovet hukumati tomonidan qadimiy buyumlar oldi-sotdisiga taqiq qo'yilishi bilan bog'liq jarayonlar oqibatida alohida shaxslar tomonidan to'plangan kolleksiyalarning muzeyga topshirilishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, markazdan yuborilgan olimlar tomonidan O'zbekistonda o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida yig'ilgan ashyolar bilan bog'liqdir.
3. **1940–1991-yillar.** Bu davrda muzey kolleksiyalari asosan muzeydan boshqa turli tashkilotlar tomonidan olib borilgan qazishmalar hisobiga boyitiladi. Shu bilan birga, muzey xodimlarining tadqiqotlari ham to'xtab qolmaydi, biroq avvalgi davrlarga nisbatan kamayadi. Buni qisman muzey yo'nalishining o'zgarishi bilan bog'lash mumkin.
4. **1991–2026-yillar.** Bu davrda muzeyning arxeologik tadqiqotlari deyarli o'tkazilmaydi. Asosan aholidan va Samarqand arxeologiya instituti qazishmalari hisobidan muzey fondi boyitiladi.

Samarqand davlat muzey-qa'riqxonasi arxeologik kolleksiyalari xronologik jihatdan o'rta paleolit davridan to XIX asrgacha bo'lgan katta davrni o'z ichiga oladi. O'zbekiston tarixini davrlashtirishning umumqabul qilingan prinsiplariga muvofiq muzey-qa'riqxonaning mavjud arxeologik kolleksiyalaridan kelib chiqib, ularni quyidagi davrlarga bo'lish mumkin:

- o'rta paleolit — miloddan avvalgi 100–40 ming yilliklar;
- yuqori paleolit — miloddan avvalgi 40–12 ming yilliklar;
- neolit — miloddan avvalgi 6–4 ming yilliklar;
- eneolit — miloddan avvalgi 4–3 ming yilliklar;
- bronza — miloddan avvalgi 3–2 ming yilliklar;
- qadimgi davr — miloddan avvalgi I ming yillik boshlari – milodiy V asrlar;
- ilk o'rta asrlar — V–IX asrlar;

- rivojlangan oʻrta asrlar — IX–XIII asrlar;
- temuriylar davri — XIV–XV asrlar;
- xonliklar davri — XVI–XIX asrlar.

Ushbu maqolada muzey-qoʻriqxonaning tosh davriga oid kolleksiyalari tahlil qilindi.

Oʻrta paleolit davriga oid kolleksiyalar. Oʻrta paleolit davriga oid arxeologik kolleksiyalar Oʻrta Osiyoda ibtidoiy jamiyat taraqqiyotining muhim bosqichini yoritib beruvchi asosiy moddiy manbalar hisoblanadi. Mazkur davrga mansub ashyolar asosan tosh qurollardan iborat boʻlib, ularning tipologik va texnologik xususiyatlari ibtidoiy insonning mehnat faoliyati, ovchilik anʼanalari hamda ishlab chiqarish tajribasining nisbatan yuqori darajada rivojlanganligini koʻrsatadi. Oʻrta paleolit kolleksiyalari miloddan avvalgi taxminan 100–40 ming yilliklar oraligʻini qamrab olib, mintaqada muste madaniyatining shakllanish va taraqqiy etish jarayonlarini aks ettiradi.

Samarqand davlat muzey-qoʻriqxonasi fondlarida saqlanayotgan oʻrta paleolit davriga oid kolleksiyalarning asosiy qismi Samarqand viloyati hududidagi Zirabuloq va Qoʻturbuloq yodgorliklari materiallari asosida shakllangan. Ushbu yodgorliklardan aniqlangan tosh qurollar majmualari Zarafshon vodiysida oʻrta paleolit davri jamoalarining yashash muhiti, xoʻjalik faoliyati va toshga ishlov berish texnikasini oʻrganishda muhim manba hisoblanadi.

Zirabuloq yodgorligidan aniqlangan arxeologik ashyolar majmuasi 16 dona buyumni oʻz ichiga oladi (A-464, KK-3814) (Samarqand davlat... 15-kirim kitobi: 58-bet). Mazkur majmuaga kiruvchi tosh qurollar orasida qirgʻichlar, kesuvchi uchli qurollar va ishlov berilgan plastinalar ustunlik qiladi. Ushbu ashyolar toshni yanchish va chaqmoqlash texnikasining nisbatan rivojlanganligini koʻrsatadi hamda ibtidoiy jamoalarning ovchilik faoliyati bilan bevosita bogʻliq boʻlgan mehnat qurollari tizimini aks ettiradi.

Qoʻturbuloq yodgorligidan topilgan oʻrta paleolit davriga oid 14 dona arxeologik ashyo (A-628, KK-6203) (Samarqand davlat... 23-kirim kitobi: 187-bet) muste madaniyatining mintaqadagi mahalliy variantini tavsiflashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur kolleksiya Samarqand arxeologiya instituti olimi B. Sayfullayev tomonidan olib borilgan qazishmalar natijasida yigʻilgan va 2014-yilda muzey-qoʻriqxonada fondiga topshirilgan.

Toshkent viloyatida joylashgan Obirahmat yodgorligidan topilgan arxeologik ashyolar mintaqaning shimoliy hududlarida ham oʻrta paleolit davriga oid aholi manzilgohlari mavjud boʻlganligini tasdiqlaydi. Miloddan avvalgi taxminan 60 ming yilliklar bilan davrlashtiriladigan ushbu kolleksiya 24 dona buyumni oʻz ichiga oladi (A-627, KK-6202) (Samarqand davlat... 23-kirim kitobi: 187-bet). Obirahmat materiallari orasida turli shakldagi tosh qurollar mavjud boʻlib, ular muste madaniyatining keng hududlarga tarqalganini koʻrsatadi. Ushbu kolleksiya ham arxeolog B. Sayfullayev tomonidan olib borilgan qazishmalar natijasida yigʻilgan va 2014-yilda muzey-qoʻriqxonada fondiga topshirilgan. Ushbu topilmalar Oʻzbekiston hududida oʻrta paleolit davrida insonlarning barqaror yashaganini tasdiqlovchi muhim dalil hisoblanadi.

Samarqand arxeologiya instituti tomonidan Qoʻturbuloq va Zirabuloq yodgorliklarida olib borilgan ilmiy qazishmalar natijasida shakllangan, oʻrta paleolit davri moddiy madaniyatini yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini beruvchi kolleksiyalarning bir qismi Samarqand viloyati oʻlkashunoslik muzeyi fondlariga ham topshirilgan. Institut tomonidan ushbu yodgorliklardan toʻplangan 50 dona tosh qurol majmuasi (KA-14, KK-4796) (Samarqand davlat... 19-kirim kitobi: 46-bet) oʻrta paleolit davriga xos boʻlgan qurol yasash texnikasining rivojlanganligini namoyon etadi.

1986-yilda Arxeologiya instituti tomonidan olib borilgan qazishmalar davomida aniqlangan yana 94 dona tosh qurol majmuasi (KA-20, KK-5251) (Samarqand davlat... 20-kirim kitobi: 79-bet) oʻrta paleolit davri qurollarining tipologik xilma-xilligini yanada yaqqol koʻrsatadi. Mazkur kolleksiya tarkibida ishlov berish darajasi turlicha boʻlgan qurollar mavjud boʻlib, ular toshga ishlov berish texnologiyasining bosqichma-bosqich takomillashganini aks ettiradi.

Umuman olganda, Samarqand davlat muzey-qoʻriqxonasi fondlarida oʻrta paleolit davriga oid jami 209 dona arxeologik ashyo saqlanadi. Ushbu kolleksiyalar vositasida ibtidoiy insonning tosh qurollar yasash texnologiyasi, ovchilik faoliyati va tabiiy muhitga moslashuv jarayonlarini oʻrganish mumkin. Zirabuloq, Qoʻturbuloq va Obirahmat materiallarining oʻzaro qiyosiy tahlili Oʻzbekiston va unga tutash hududlarda oʻrta paleolit davri jamoalarining keng tarqalganini hamda mintaqada muste madaniyati barqaror rivojlanganini koʻrsatadi.

Oʻrta paleolit kolleksiyalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ular Oʻzbekiston hududida insonlarning oʻrta paleolit davridayoq muqim yashaganini tasdiqlaydi. Tosh qurollar tipologiyasi va ishlab

chiqarish texnologiyasi ibtidoiy jamoalarning ovchilik-termachilik xo‘jaligiga asoslangan turmush tarzini aks ettiradi. Ushbu materiallar O‘zbekiston hududida ibtidoiy jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarini tiklashda muhim manba hisoblanadi.

Yuqori paleolit davriga oid kolleksiyalar. Yuqori paleolit davriga oid arxeologik kolleksiyalar ibtidoiy jamiyat taraqqiyotida sifat jihatidan yangi bosqichni aks ettiruvchi muhim moddiy manbalar hisoblanadi. Mazkur davrda tosh qurollar ishlab chiqarish texnologiyasi ancha takomillashib, mehnat qurollarining shakl va funksional xilma-xilligi ortadi. Yuqori paleolit davri ashyolari miloddan avvalgi taxminan 40–12 ming yilliklar oralig‘ini qamrab olib, mintaqada zamonaviy inson shakllanishi, xo‘jalik faoliyatining murakkablashuvi hamda madaniy jarayonlarning jadallashuvini yoritadi.

Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi fondlarida saqlanayotgan yuqori paleolit davriga oid kolleksiyalarning muhim qismi Samarqand shahri hududida joylashgan yuqori paleolit manzilgohi materiallari asosida shakllangan. Ushbu manzilgohdan aniqlangan arxeologik ashyolar majmuasi 54 dona buyumni o‘z ichiga oladi (A-171, KK-1323) (Samarqand davlat... 16-kirim kitobi: 48-bet). Qazishmalar 1939-yilda arxeolog N. Xarlamov tomonidan olib borilgan. To‘plangan ashyolar 1944-yilda Samarqand davlat universiteti olimi D.N. Lev tomonidan muzeyga topshirilgan. Mazkur kolleksiya yuqori paleolit davrida Samarqand vohasida barqaror aholi manzilgohlari mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Samarqand yuqori paleolit manzilgohidan topilgan tosh qurollar orasida qirg‘ichlar, kesuvchi uchli qurollar, plastinalar va yon tomonlari ishlov berilgan qurollar ustunlik qiladi. Ushbu ashyolar toshga ishlov berish texnologiyasining nisbatan yuqori darajada takomillashganini, xomashyoni maqsadga muvofiq tanlash va ishlov berish an‘analari shakllanganini ko‘rsatadi. Kolleksiya tarkibidagi buyumlarning tipologik xilma-xilligi yuqori paleolit davrida mehnat qurollarining funksional ixtisoslashuvi yuz berganini tasdiqlaydi.

Toshkent viloyati, Qoraqalpog‘iston va Turkmaniston hududlaridan to‘plangan 27 dona tosh va bronza qurollar, hayvonlar suyaklari kolleksiyasida (A-384, KK-3120) (O‘zbekiston madaniyati... 39-inventar kitobi: 14–20-betlar) ham yuqori paleolit madaniyatiga oid buyumlar mavjud. Kolleksiya geolog olim I. Anboyev tomonidan uzoq vaqt davomida (1925–1964) to‘plangan va 1966-yilda muzeyga topshirilgan. Mazkur kolleksiyaga kiruvchi buyumlar orasida plastinalar, kesuvchi uchli qurollar va qirg‘ichlar mavjud bo‘lib, ular ilmiy jihatdan tadqiq etishga muhtojdir. Ushbu materiallar yuqori paleolit davrida toshga ishlov berish texnologiyasi mintaqa miqyosida barqaror rivojlanganini aks ettiradi.

1960–1967 hamda 1971-yillarda Samarqand davlat universiteti tomonidan Samarqand yuqori paleolit manzilgohida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida to‘plangan 62 dona arxeologik ashyo (KA-18) ilmiy jihatdan alohida qimmatga ega (Samarqand viloyati... 1-inventar kitobi: 136–142-betlar). Mazkur kolleksiya tarkibidagi tosh qurollar orasida plastinalar, qirg‘ichlar va kesuvchi buyumlar mavjud bo‘lib, ularning ishlov berish darajasi yuqori paleolit davrida tosh qurollar ishlab chiqarish usullarining ancha takomillashganini ko‘rsatadi.

Samarqand yuqori paleolit manzilgohida 1960–1967-yillarda SamDU olimi D.N. Lev, 1970-yilda Samarqand arxeologiya instituti va SamDU qo‘shma ekspeditsiyasi, 1971-yildan esa SamDU olimi M.D. Jo‘raqulov rahbarligidagi ekspeditsiya qazishma ishlarini olib borgan. Ushbu qazishmalar natijasida to‘plangan materiallar muzey fondiga topshirilgan. Ushbu materiallar Samarqand vohasida yuqori paleolit madaniyatining barqaror rivojlanganini tasdiqlovchi muhim dalil hisoblanadi.

Umuman olganda, Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi fondlarida yuqori paleolit davriga oid jami 151 dona arxeologik ashyo saqlanadi. Ushbu kolleksiyalar so‘nggi paleolit davri jamoalarining turmush tarzi, ovchilik faoliyati hamda tabiiy muhitga moslashuv jarayonlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Tosh qurollar tipologiyasi va ishlab chiqarish texnologiyasining takomillashuvi yuqori paleolit davrida mehnat qurollari ixtisoslashuvi kuchayganini hamda ibtidoiy xo‘jalik tizimi murakkablashganini ko‘rsatadi.

Yuqori paleolit kolleksiyalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ular Samarqand vohasida zamonaviy inson shakllanishi va madaniy taraqqiyot jarayonlarini yoritadi. Kolleksiyalarning hududlararo qiyosiy tahlili mintaqaning turli qismlarida yashagan jamoalar o‘rtasida texnologik o‘xshashliklar mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu holat yuqori paleolit davrida O‘zbekiston hududining keng qismi ibtidoiy jamoalar tomonidan o‘zlashtirilganini bildiradi.

Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi fondlarida mezolit davriga oid kolleksiyalar mavjud emas.

Neolit davriga oid kolleksiyalar. Neolit davriga oid arxeologik kolleksiyalar ibtidoiy jamiyat taraqqiyotida tub burilish davrini aks ettiruvchi muhim moddiy manbalar hisoblanadi. Ushbu davrda

insoniyat hayotida ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tish, o'troq turmush tarzining shakllanishi hamda tosh qurol tayyorlashda silliqlash va parmalash texnikasining rivojlanishi yuz beradi. Neolit davri ashyolari miloddan avvalgi VI–IV ming yilliklar oralig'ini qamrab olib, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini yoritishda muhim o'rin tutadi.

Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondlarida saqlanayotgan neolit davriga oid kolleksiyalar son jihatidan tosh davri materiallari ichida eng katta majmuani tashkil etadi. Ushbu kolleksiyalar Qoraqalpog'iston, Buxoro va Samarqand viloyatlari hududlarida joylashgan neolit manzilgohlari materiallari asosida shakllangan bo'lib, ular orasida Jonbosqal'a, Lavlakon va Sazag'on yodgorliklari alohida ahamiyatga ega.

Qoraqalpog'iston hududidan aniqlangan 146 dona tosh mehnat qurollari majmuasi (A-294) neolit davrida mazkur hududlarda xo'jalik faoliyati keng rivojlanganini ko'rsatadi. Ushbu kolleksiya XX asrning 30-yillarida geolog olim S.V. Smirnov tomonidan Leningrad geologik ekspeditsiyasining Qizilqumning Qoraqalpog'iston hududidagi faoliyati davomida to'plangan. Kolleksiya O. Okladnikov tomonidan ko'zdan kechirilib, ilmiy tavsif berilgan (O'zbekiston madaniyati... 10-inventar kitobi: 31–33-betlar). Unga ko'ra, kolleksiya tarkibidagi buyumlar orasida mikrolitlar, silliqlangan tosh qurollar, qirg'ichlar, kesuvchi qurollar hamda xo'jalik faoliyatiga oid tosh buyumlar mavjud. Ularning ishlov berish texnikasi neolit davrida toshga silliqlash orqali shakl berish an'analari rivojlanganini tasdiqlaydi.

Qoraqalpog'istonning Qizilqum cho'llari (42–43 gradus shimoliy kenglik va 63–64 gradus sharqiy uzunlik) hududidan aniqlangan 7 dona tosh mehnat qurollari majmuasi (A-371, KK-1717) (O'zbekiston madaniyati... 45-son inventar kitobi: 82–85-betlar) neolit davrida mintaqaning shimoliy-g'arbiy hududlari ham faol o'zlashtirilganini ko'rsatadi. Mazkur kolleksiya 1931-yilda Leningrad geologik ekspeditsiyasi tomonidan aniqlangan ashyolar hisobiga shakllangan. Shuning uchun ular nashr etilmagan va uzoq vaqt davomida davri ham aniqlanmagan. Samarqand arxeologiya instituti olimi B. Sayfullayev kolleksiyani ko'zdan kechirib, ularni neolit davriga oid degan to'xtamga kelgan.

Buxoro viloyatidagi Janubiy Qizilqum hududida Lavlakon manzilgohidan topilgan 156 dona arxeologik ashyolar majmuasi (A-389, KK-3238) neolit davri aholi manzilgohlarining tuzilishi va xo'jalik faoliyatini o'rganishda muhim manba hisoblanadi (O'zbekiston madaniyati... 44-son inventar kitobi: 81–133-betlar). Ashyolar XX asrning 60-yillarida SSSR Fanlar akademiyasi Etnografiya instituti ekspeditsiyasi davomida to'plangan. Mazkur kolleksiya tarkibidagi tosh qurollar orasida silliqlangan bolta va teshalar, qirg'ichlar hamda kesuvchi buyumlar ustunlik qiladi. Kolleksiya tadqiq etilmagan. Adabiyotlarda neolit davri Lavlakon ko'li haqida ba'zi qisqa ma'lumotlar uchraydi (Виноградов: 1968; Мамедов: 1963, С. 14–15; Вактурская: 1959, С. 39–51). Ushbu topilmalar neolit davrida o'troq turmush tarzining shakllanib borayotganini hamda ishlab chiqaruvchi xo'jalik unsurlari paydo bo'lganini ko'rsatadi.

Samarqand viloyatiga oid 7 dona tosh mehnat quroli (A-295) muzey-qo'riqxonaning eski jamlanmasiga oid (O'zbekiston madaniyati... 10-son inventar kitobi: 34–36-betlar). Muzey-qo'riqxonada fond ashyolarini ilmiy ro'yxatdan o'tkazish ishlari 1928-yildan boshlangan. Ungacha bo'lgan davrda qabul qilingan ashyolar esa qachon, kim tomonidan topshirilganligi, qaysi hududdan topilganligi xususidagi qaydlar hujjatlarda qayd etilmagan. Ushbu kolleksiyadagi ashyolarning ham ba'zilarining kelib chiqishi ma'lum. Jumladan, bir dona ashyo 1936-yilda Pstdarg'om tumani Gumbaz kolxozi aholisidan muzey xodimi I. Suxarev tomonidan sotib olingan. Ikkinchi ashyo muzey direktori A. Kaplunova tomonidan 1939-yilda Samarqand arki hududidan topilgan. Uchinchi ashyo G.V. Grigorev tomonidan Kofirqal'a shaharchasi hududidan topilgan. Qolgan ashyolarning kelib chiqishi noma'lumdir. Mazkur buyumlar orasida silliqlangan kesuvchi qurollar va xo'jalik buyumlari mavjud bo'lib, ular Samarqand shahri va uning atroflarida ham neolit davrida o'troq aholi manzilgohlari shakllanganini ko'rsatadi.

Neolit davriga oid eng yirik majmua Qoraqalpog'istondagi Jonbosqal'a yodgorligidan aniqlangan 5000 dona arxeologik ashyo (A-459, KK-3808) hisoblanadi (O'zbekiston madaniyati... 51-son inventar kitobi: 2–111-betlar). Miloddan avvalgi V–IV ming yilliklarga oid ushbu kolleksiya hududda yirik neolit manzilgohlari mavjud bo'lganini hamda xo'jalik va madaniy jarayonlar yuqori darajada rivojlanganini ko'rsatadi. Ushbu ashyolar A.V. Vinogradov tomonidan 1959–1960-yillarda Xorazm ekspeditsiyasi davomida yig'ilgan va keyinchalik muzeyga topshirilgan. Jonbosqal'a materiallari orasida silliqlangan tosh qurollar, xo'jalik buyumlari, uy-joy qurilishiga oid qoldiqlar va ishlab chiqarish faoliyatiga oid ashyolar mavjud. Mazkur majmua O'rta Osiyoda neolit davrining rivojlangan bosqichini tavsiflovchi muhim manba hisoblanadi.

Sazag'on neolit manzilgohi Zarafshon vodiysidagi eng muhim neolit yodgorliklaridan biri bo'lib, u uzoq yillar Samarqand davlat universiteti tomonidan tadqiq etilgan. Sazag'on manzilgohi SamDU

talabasi O. Ibragimov tomonidan 1965-yilda ochilgan. Ushbu yodgorlikdan topilib, Samarqand viloyati o'lkashunoslik muzeyi fondlariga topshirilgan ashyolar neolit davri madaniyatini o'rganishda muhim manba hisoblanadi (Samarqand viloyati... 1-inventar kitobi: 129–135-betlar). 1965–1980-yillarda Samarqand davlat universiteti tomonidan olib borilgan qazishmalar natijasida aniqlangan 281 dona tosh qurol majmuasi (KA-17) neolit davri mehnat qurollari tipologiyasini o'rganish imkonini beradi.

Sazag'on kolleksiyasi tarkibidagi tosh qurollarning aksariyati silliqqlangan bolta, tesha, qirg'ich va kesuvchi buyumlardan iborat bo'lib, ularning o'lchami va ishlov berish texnikasi deyarli bir xil. Bu holat neolit davrida tosh qurollar ishlab chiqarishda ma'lum darajada standartlashuv mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Sazag'on materiallari Zarafshon vodiysida neolit davrida ishlab chiqaruvchi xo'jalik va o'troq turmush tarzi shakllanganini tasdiqlovchi muhim dalildir.

1968, 1982 va 1986-yillarda o'tkazilgan qazishmalar davomida to'plangan Sazag'on kolleksiyalari (KA-28, KA-29) mazkur hududda neolit davri madaniyatini yanada kengroq yoritadi (Samarqand viloyati... 2-inventar kitobi: 47–51-betlar). Ushbu kolleksiyalar tarkibidagi tosh qurollar ishlov berish darajasi va shakl jihatdan KA-17 majmuasiga yaqin bo'lib, yodgorlikda uzoq muddat davomida barqaror aholi yashaganini ko'rsatadi. Sazag'on materiallari Samarqand hududida neolit davri madaniyatini har tomonlama o'rganishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

Neolit davriga oid qoyatosh suratlari mazkur davrning ma'naviy va diniy qarashlarini yorituvchi noyob manbalar sifatida alohida ahamiyatga ega. Farg'ona viloyati, So'x daryosi bo'yidagi Polov qishlog'idan aniqlangan 1 dona petroglif (A-394, KK-3285) neolit davri san'atining dastlabki namunalaridan biri hisoblanadi. Navoiy viloyatidagi Sarmishsoy hududidan topilgan echki va eshak tasvirlari (A-394, KK-3209) neolit davrida xo'jalik faoliyatini aks ettiradi (O'zbekiston madaniyati... 44-son inventar kitobi: 174–175-betlar).

Navoiy viloyati Nurota tog'laridan geolog V. Zudin tomonidan 1959-yilda aniqlangan 2 dona qoyatosh suratlari ot tasviri tushirilgan bo'lib, (A-411) neolit davri tasviriy an'analarini yoritishda muhimdir (O'zbekiston madaniyati... 47-son inventar kitobi: 15–16-betlar). Shuningdek, Tojikiston hududidagi Qutbuloq yo'lidan topilgan 4 dona petroglif (A-531) neolit madaniyatining hududlararo tarqalganini ko'rsatadi (O'zbekiston madaniyati... 58-son inventar kitobi: 17–20-betlar). Ushbu petrogliflar ibtidoiy jamoalarning dunyoqarashi, ovchilik marosimlari va tabiat bilan o'zaro munosabatini ko'rsatib berishda muhim manba hisoblanadi.

Umuman olganda, Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondlarida saqlanayotgan neolit davriga oid arxeologik ashyolarning umumiy soni 5612 donani tashkil etadi. Ushbu kolleksiyalar O'rta Osiyoda ishlab chiqaruvchi xo'jalikning shakllanishi, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi hamda aholi madaniyatining taraqqiyotini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Neolit kolleksiyalarining son jihatidan katta hajmi mazkur davrning Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondlarida eng keng yoritilgan tosh davri bosqichi ekanini ko'rsatadi.

Neolit kolleksiyalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ular O'zbekiston hududida o'troq aholi manzilgohlari shakllanganini hamda ishlab chiqaruvchi xo'jalik tizimi rivojlanganini tasdiqlaydi. Tosh qurollarning silliqqlangan va standartlashgan shakllari neolit davrida mehnat qurollari ishlab chiqarish texnologiyasi yuqori darajada rivojlanganini ko'rsatadi. Ushbu materiallar O'zbekiston hududida neolit davri madaniyatini rekonstruksiya qilishda asosiy manba hisoblanadi.

Eneolit davriga oid kolleksiyalar. Eneolit davriga oid arxeologik kolleksiyalar ibtidoiy jamiyat taraqqiyotida tosh davridan metall davriga o'tish bosqichini aks ettiruvchi muhim moddiy manbalar hisoblanadi. Mazkur davrda tosh qurollar bilan bir qatorda mis buyumlar ham qo'llanila boshlagan bo'lib, bu holat xo'jalik faoliyatining kengayishi hamda ishlab chiqaruvchi xo'jalikning rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Eneolit davri ashyolari miloddan avvalgi IV–III ming yilliklar oralig'ini qamrab olib, mintaqaning keyingi bronza davri madaniyatiga o'tish jarayonlarini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondlarida saqlanayotgan eneolit davriga oid kolleksiyalar asosan Qoraqalpog'iston va Navoiy viloyatlari hududlarida joylashgan yodgorliklar materiallari asosida shakllangan. Ushbu davrga mansub ashyolar son jihatidan neolit kolleksiyalariga nisbatan kam bo'lsa-da, ularning ilmiy ahamiyati yuqori hisoblanadi, chunki ular ibtidoiy jamiyat taraqqiyotining o'tish bosqichini yoritadi.

Qoraqalpog'iston hududida joylashgan Qavatqal'a yodgorligidan aniqlangan eneolit davriga oid 2000 dona arxeologik ashyo majmuasi (A-460, KK-3808) Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondlaridagi eng yirik eneolit kolleksiyasi hisoblanadi (O'zbekiston madaniyati ... 52-son inventar kitobi: 1–91-betlar). Mazkur ashyolar SSSR Fanlar akademiyasi Etnografiya instituti tomonidan 1956–1958-

yillarda arxeolog M. Itina rahbarligida Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi doirasida o'tkazilgan qazishmalar jarayonida yig'ilgan va 1979-yilda muzey fondlariga topshirilgan.

Qavatqal'a kolleksiyasi tarkibidagi buyumlar orasida tosh qurollar, xo'jalik buyumlari, uy-joy qurilishiga oid materiallar hamda ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq ashyolar mavjud. Ushbu majmua eneolit davrida Amudaryo quyi havzasi hududida yirik aholi manzilgohlari mavjud bo'lganini, sug'orma dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik faoliyati shakllanganini ko'rsatadi. Kolleksiyadagi tosh buyumlar ishlov berish texnikasi jihatidan neolit an'analarini davom ettirsa-da, ayrim xo'jalik buyumlarida metallga o'tish jarayonining ilk belgilari kuzatiladi.

Navoiy viloyati Uchquduq tumanidagi Ko'kayoz yodgorligidan topilgan eneolit davriga oid 10 dona arxeologik ashyo (A-629, KK-6204) son jihatidan kam bo'lishiga qaramay, ilmiy jihatdan muhim ahamiyatga ega (O'zbekiston madaniyati ... 50-son inventar kitobi: 199–200-betlar). Ushbu kolleksiya arxeolog B. Sayfullayev tomonidan, olim tomonidan to'plangan boshqa kolleksiyalar qatorida, 2014-yilda muzeyga topshirilgan. Mazkur topilmalar orasida tosh qurollar va xo'jalik buyumlari mavjud bo'lib, ular eneolit davrida tog'oldi va cho'lga yaqin hududlarning o'zlashtirilganini ko'rsatadi. Ko'kayoz materiallari eneolit davrida aholi manzilgohlari geografiasining kengayganini tasdiqlovchi muhim dalil hisoblanadi.

Umuman olganda, Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondlarida eneolit davriga oid arxeologik ashyolarning umumiy soni 2010 donani tashkil etadi. Ushbu kolleksiyalar mintaqada tosh davri madaniyatidan metall davri madaniyatiga o'tish jarayonlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Eneolit materiallari tosh qurollar bilan bir qatorda metall buyumlarning paydo bo'lishi, xo'jalik faoliyatining kengayishi hamda aholi manzilgohlarining hududiy jihatdan keng tarqalganini ko'rsatadi.

Eneolit kolleksiyalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ular ibtidoiy jamiyat taraqqiyotida ishlab chiqaruvchi xo'jalikning yanada rivojlanganini hamda metallga ishlov berishning boshlanish bosqichini yoritadi. Qavatqal'a va Ko'kayoz materiallarining qiyosiy tahlili eneolit davrida O'zbekiston hududining turli tabiiy-geografik zonalarini o'zlashtirilganini ko'rsatadi. Ushbu kolleksiyalar bronza davri madaniyatining shakllanish jarayonlarini tushunishda ham muhim ahamiyatga ega.

Tosh davri kolleksiyalarining saqlanishi va muzeylashtirilishi. Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondlarida saqlanayotgan tosh davriga oid arxeologik kolleksiyalar Zarafshon vodiysi va unga tutash hududlarda insoniyat tarixining eng qadimgi bosqichlarini yorituvchi noyob moddiy manbalar hisoblanadi. Mazkur kolleksiyalarni ilmiy jihatdan o'rganish, saqlash va muzeylashtirish jarayonlari zamonaviy muzeysunoslik talablari asosida amalga oshiriladi. Tosh davri ashyolari material tarkibi, ishlov berish texnologiyasi va tarixiy qadri bilan boshqa arxeologik materiallardan farq qilganligi sababli ularni saqlashda maxsus konservatsiya yondashuvi talab etiladi.

Tosh davri kolleksiyalarining asosiy qismini toshdan yasalgan mehnat qurollari — qirg'ichlar, kesuvchi uchli qurollar, plastinalar, silliqlangan bolta va teshalar tashkil etadi. Ushbu buyumlar tabiiy tosh xomashyosidan tayyorlanganligi sababli ularning saqlanishi ko'p jihatdan atrof-muhit sharoitiga bog'liq. Namlik va harorat rejimining keskin o'zgarishi tosh buyumlar yuzasida mikroyoriqlar hosil bo'lishiga, ayrim hollarda esa ularning parchalangan holatga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois fond xonalarida barqaror mikroiklimni ta'minlash tosh davri kolleksiyalarini saqlashning muhim sharti hisoblanadi.

Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasida tosh davri ashyolari xronologik va tipologik tamoyillar asosida tizimlashtirilgan. O'rta paleolit, yuqori paleolit, neolit va eneolit davrlariga mansub buyumlar alohida guruhlariga ajratilib, inventar raqamlari bo'yicha fond hujjatlarida qayd etilgan. Bunday tizim kolleksiyalarining ilmiy o'rganilishi va qiyosiy tahlilini osonlashtiradi hamda ekspozitsiyada davriy rivojlanish ketma-ketligini ko'rsatish imkonini beradi.

Fond materiallari orasida ayrim tosh davri ashyolarining fragmentar holatda saqlanayotgani kuzatiladi. Jumladan, Qo'tirbuloq yodgorligidan olingan ayrim o'rta paleolit buyumlari (A-628) mexanik shikastlanish izlariga ega. Zirabuloq yodgorligidan olingan paleolit ashyolari (Inv 1279–1284, KK-146/1, KA-37) orasida ham qisman parchalanib saqlangan namunalar mavjud. Ushbu buyumlar restavratsiya va mustahkamlash choralarini talab etadi. Sazag'on neolit kolleksiyasiga mansub tosh qurollar (KA-17, KA-28, KA-29) esa asosan qoniqarli holatda bo'lib, ayrim namunalar yuzasida kichik yoriqlar kuzatiladi.

Tosh davri kolleksiyalarini konservatsiya qilishda buyum yuzasini mexanik tozalash, mustahkamlash va saqlash qadoqlarini to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga ega. Tosh buyumlarni saqlashda ularning o'zaro ishqalanishining oldini olish uchun individual qadoqlash materiallaridan foydalanish zarur. Ayniqsa, uchli va qirrali buyumlar alohida qutilarda yoki yumshoq asosli konteynerlarda joylashtirilishi maqsadga muvofiqdir.

Muzeyshunoslik nuqtayi nazaridan tosh davri kolleksiyalarini ekspozitsiyada namoyish etish jarayoni ilmiy talqin va vizual izoh bilan uyg'un holda tashkil etilishi zarur. Ibtidoiy davr buyumlari tashqi ko'rinishi jihatidan sodda bo'lganligi sababli, ularning tarixiy mazmunini ochib berish uchun rekonstruksiya, grafik material va tushuntiruvchi matnlar muhim rol o'ynaydi. Shu bois Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi tosh davri kolleksiyalari asosida har bir davr bo'yicha alohida tematik ko'rgazmalar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

O'rta paleolit davri kolleksiyalari asosida "Zarafshon vodiysida ilk ovchilar" mavzusida ko'rgazma tashkil etish mumkin. Ekspozitsiya tarkibiga Qo'tirbuloq (A-628) va Zirabuloq (Inv 1279-1284, KK-146/1, KA-37) yodgorliklari materiallari kiritilib, muste madaniyatiga xos tosh qurollar, ovchilik jarayonlari va ibtidoiy insonning yashash muhiti rekonstruksiya orqali yoritilishi mumkin. Ushbu ko'rgazma o'rta paleolit davrida Zarafshon vodiysida muqim aholi mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Yuqori paleolit davri kolleksiyalari asosida "Samarqand vohasida so'nggi paleolit jamoalari" mavzusida ko'rgazma yaratish maqsadga muvofiqdir. Ekspozitsiyada Samarqand yuqori paleolit manzilgohi (A-171, KK-1323) va KA-18 kolleksiyasi materiallari namoyish etilib, tosh qurollar ishlab chiqarish texnologiyasining takomillashuvi, mehnat qurollari ixtisoslashuvi hamda zamonaviy inson shakllanish jarayonlari yoritilishi mumkin. Grafik panellar va rekonstruksiya yuqori paleolit turmush tarzini vizual ko'rsatishga xizmat qiladi.

Neolit davri kolleksiyalari asosida "Zarafshon vodiysida ilk dehqonlar va chorvadorlar" mavzusida tematik ekspozitsiya tashkil etish mumkin. Unda Sazag'on (KA-17, KA-28, KA-29), Lavlakon (A-389, KK-3238) va Jonbosqal'a (A-459, KK-3808) materiallari kiritilib, ishlab chiqaruvchi xo'jalikning shakllanishi, o'troq turmush tarzi va tosh qurollarni silliqlash texnologiyasi yoritiladi. Maket va dioramalar orqali neolit davri manzilgohi tuzilishi hamda xo'jalik faoliyati tasvirlanishi mumkin.

Eneolit davri kolleksiyalari asosida esa "Metall davriga o'tish bosqichi" mavzusida ko'rgazma yaratish mumkin. Ekspozitsiya tarkibiga Qavatqal'a (A-460, KK-3808) va Ko'kayoz (A-629, KK-6204) materiallari kiritilib, tosh va mis buyumlarning birgalikda qo'llanilishi, ishlab chiqaruvchi xo'jalikning kengayishi hamda aholi manzilgohlari geografiasining kengayishi yoritiladi. Ushbu ko'rgazma eneolit davrining o'tish xarakterini ochib berishga xizmat qiladi.

Tosh davri kolleksiyalarini zamonaviy muzeylashtirish jarayonida ularni raqamlashtirish muhim yo'nalish hisoblanadi. Yuqori aniqlikdagi fotofiksatsiya, 3D modellashtirish va elektron fond katalogini yaratish kolleksiyalarning ilmiy axborot salohiyatini kengaytiradi hamda tadqiqotchilar uchun masofadan foydalanish imkonini yaratadi. Ayniqsa, fragmentar holatda saqlanayotgan buyumlarni raqamli formatda hujjatlashtirish ularning ilmiy qiymatini saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasida saqlanayotgan tosh davri kolleksiyalarini saqlash va muzeylashtirish tizimi ularning ilmiy, tarixiy va madaniy ahamiyatini saqlab qolishga qaratilgan. Tosh davri ashyolarini konservatsiya qilish, tizimli fond hisobini yuritish va davriy tamoyil asosida tematik ekspozitsiyalarda namoyish etish mazkur kolleksiyalarning ilmiy tadqiqotlar hamda madaniy-ma'rifiy faoliyatdagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondlarida saqlanayotgan tosh davriga oid arxeologik kolleksiyalar O'zbekiston hududida insoniyat tarixining eng qadimgi bosqichlarini yorituvchi muhim ilmiy manba majmuasini tashkil etadi. Tadqiqot natijalari muzey-qo'riqxonada tarkibidagi muzeylarda arxeologik kolleksiyalar keng miqyosda jamlanganini hamda ularning shakllanishi asosan ilmiy qazishmalar, tasodifiy topilmalar va shaxsiy kolleksiyalar hisobiga amalga oshganini ko'rsatdi. Kolleksiyalarning shakllanish tarixi XIX asr oxiridan boshlab bir necha bosqichlarda kechgan bo'lib, ayniqsa XXI asrning boshlari ularning eng faol jamlanish davri bo'lgan.

Tosh davriga oid kolleksiyalar xronologik jihatdan o'rta paleolitdan eneolit davrigacha bo'lgan uzluksiz tarixiy jarayonni aks ettiradi. O'rta paleolit materiallari (209 dona) Zirabuloq, Qo'tirbuloq va Obirahmat yodgorliklari asosida shakllangan. Yuqori paleolit kolleksiyalari (151 dona) Samarqand vohasida so'nggi paleolit bosqichida tosh qurollar ishlab chiqarish texnologiyasi takomillashganini hamda ibtidoiy jamoalar faoliyatining murakkablashganini ko'rsatadi.

Neolit davriga oid kolleksiyalar (5612 dona) son jihatidan eng yirik majmuani tashkil etib, Jonbosqal'a, Lavlakon va Sazag'on yodgorliklari materiallari asosida O'zbekiston hududida ishlab chiqaruvchi xo'jalik va o'troq turmush tarzining shakllanish jarayonlarini yoritadi. Eneolit davri kolleksiyalari (2010 dona) esa Qavatqal'a va Ko'kayoz materiallari orqali tosh davridan metall davriga o'tish bosqichi, xo'jalik faoliyatining kengayishi va aholi manzilgohlari geografiasining kengayganini ko'rsatadi.

Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondlaridagi tosh davri kolleksiyalari O'zbekiston hududida paleolit davridayoq insonlarning muqim yashaganini, neolit davrida ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllanganini va eneolit davrida metallga o'tish jarayonlari boshlanganini ekspozitsiyalarda ko'rsatib bera oladigan moddiy manbalar hisoblanadi. Ushbu kolleksiyalar ibtidoiy jamiyat taraqqiyotining bosqichma-bosqich evolyutsiyasini tiklashda muhim ilmiy asos yaratadi.

Muzeyshunoslik nuqtayi nazaridan mazkur kolleksiyalarni tizimli saqlash, ilmiy tavsiflash va tematik ekspozitsiyalarda davriy ketma-ketlik asosida namoyish etish ularning ilmiy-ma'rifiy salohiyatini oshiradi. Tosh davri kolleksiyalari asosida o'rta paleolit, yuqori paleolit, neolit va eneolit davrlariga bag'ishlangan alohida ko'rgazmalar tashkil etish Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasining ilmiy va madaniy faoliyatini boyitishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi. 15-kirim kitobi. — 58-bet.
2. Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi. 16-kirim kitobi. — 48-bet.
3. Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi. 19-kirim kitobi. — 46-bet.
4. Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi. 20-kirim kitobi. — 79-bet.
5. Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi. 23-kirim kitobi. — 187-bet.
6. Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi. 23-kirim kitobi. — 187-bet.
7. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari. 10-inventar kitobi. — 31–36-betlar.
8. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari. 39-inventar kitobi. — 14–20-betlar.
9. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari. 44-son inventar kitobi. — 81–133, 174–175-betlar.
10. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari. 45-son inventar kitobi. — 82–85-betlar.
11. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari. 47-son inventar kitobi. — 15–16-betlar.
12. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari. 50-son inventar kitobi. — 199–200-betlar.
13. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari. 51-son inventar kitobi. — 2–111-betlar.
14. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari. 52-son inventar kitobi. — 1–91-betlar.
15. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari. 58-son inventar kitobi. — 17–20-betlar.
16. Samarqand viloyati o'lkashunoslik muzeyi. 1-inventar kitobi. — 129–142-betlar.
17. Samarqand viloyati o'lkashunoslik muzeyi. 2-inventar kitobi. — 47–51-betlar.
18. Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма // Материалы Хорезмской экспедиции. — Вып. 8. — Москва: Наука, 1968. — Гл. 2. — С. 107–111; Гл. 4. — С. 153–178.
19. Мамедов Е. Пески внутренних Кызылкумов. — Ташкент, 1963. — С. 14–15.
20. Вактурская О. Поездке в Южные Кызылкумы в 1955 г. // Вып. 1. — Москва, 1959. — С. 39–51.